

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLLARI

Berdiyev Shoxbozjon Ziyomiddinovich

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm industriyasi rivojlanishing ilk bosqichlari, uning ketma-ketligi, O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida turizmning rivojlanishining ma'lum omillarini o'rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib, turizm rivojlanishining kelgusidagi istiqbollarini belgilash, shuningdek turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar : Milliy turizm, milliy iqtisod ,turizm infratuzilmasi, investisiya, transport xizmatlari, mehmonxona, tarixiy obidalar.

Abstract : In this article, the first stages of the development of the tourism industry in Uzbekistan, its sequence, the study of certain factors of the development of tourism in the process of the development of national tourism in Uzbekistan, revealing the laws of its development, determining the future prospects of tourism development, as well as the formation of the market of tourist products, information on economic methods of regulating the activities of this sector and improving the organizational structures of its management, the economic mechanism of tourism development is included.

Keywords: National tourism, national economy, tourism infrastructure, investment, transport services, hotel, historical monuments.





O'zbekistonda turizm infratuzilmasiga Sobiq Ittifoq davridanoq asos qo'yilgan edi. Biroq, bu sohadan keladigan daromadlarning qayta taqsimlanish muammosi odatdagidek markaz tomonidan hal etilar edi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham Davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekistonning eng muhim tarixiy va turistik shaharlari dunyoning qadimgi madaniyat, ma'naviyat va sivilizatsiya markazlari sifatida jahon sayyohlarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda turistik marshurutlarning ko'plab yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularga sayyohlarni qiziqtirish mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, respublika viloyatlarining barchasida o'ziga xos turistik imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish, mintaqalardagi mavjud turistik ob'ektlarni (tarixiy, madaniy, arxeologik, arxitektura, tabiiy rekreatsiya resurslar va h.k) chuqur iqtisodiy jihatdan baholash va aniq turistik marshrutlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Hozirda O'zbekistonda zamonaviy turizm infrastrukturasini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi". Shunday ekan O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi [2].

Mustaqilligimizning dastlabgi yillariga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaitirish va boshqalardan iborat. Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy



manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni kabul kilingan (20-avgust 1999). Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi [3].

Keyingi davrlarda esa O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilingan. Avvalambor turizm sohasini rivojlantirishning muhim omili – bu ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilishdir. Bugungi kunda O'zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun zarur infrastrukturani shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilib, Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo'nalishlar chet ellik turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. O'zbekistonga 2016 yilda 1 million 300 ming, 2017 yilda qariyb 2 million 700 ming, 2018 yilda 5 million 346 ming 200 kishi, 2019 yilda 6 million 748 ming 500 kishidan iborat turistlar kelib, 2020 yilda ularning sonini 7,5 millionga, 2023 yilda 10 million kishiga etkazish mo'ljallandi. Bu borada, O'zbekistonda milliy turizm infratuzilmasini rivojlantirishda barcha infratuzilma ob'ektlarini jahon andozalari darajasiga etkazib, turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari, mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko'ngilochar xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o'rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin. Hozirda



mamlakatimizda turizm resurslaridan samarali foydalanishda transport infratuzilmasining roli va hissasi yuqori bo'lib, "O'zbekistonda milliy turizmning rivojlanishiga O'zbekiston avtomobil yo'llari, "O'zbekiston Havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik temiryo'l kompaniyasi kabilar katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ma'lumki, mehmonxonachilik ishini tashkil qilishda bir qancha talablar, ya'ni xodimlarning tayyorgarligi, ma'lumoti, malakasi, yoshi, sog'ligi, chet tillarni bilishi va tashqi ko'rinishiga ham ahamiyat beriladi [4].

O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida turizmning boshqa turlariga nisbatan madaniy-ma'rifiy turizm muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bugungi kunda O'zbekistonda tarixiy obidalar va tarixni o'rganishga qaratilgan turizm keng rivojlantirilib, O'zbekistonning boy turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sayyohlik salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, O'zbekistonda YUNESKOning butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz kabi ko'plab tarixiy-me'moriy obidalar mavjud bo'lgan shaharlar joylashgan. Madaniy-ma'rifiy turizm turizmning eng ommaviy turlaridan biridir. Madaniy-ma'rifiy turizmning asosiy maqsadi tarixiy, me'moriy, san'at yodgorliklari, tabiiy va etnik o'ziga xosliklar, biror xalqning zamonaviy turmushi kabilar bilan tanishishdan iborat bo'lib, madaniy-ma'rifiy turizm bugungi kunda dunyoda tobora katta qiziqish uyg'otib, ommalashib borayotgan turizm turlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston o'zining boy tarixi va madaniyati bilan turizmning rivojlanishi uchun yuqori imkoniyatlarga ega bo'lib, O'zbekiston hududida joylashgan 4000 ga yaqin moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKOning ro'yxatiga kiritilgan [5].



O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan (Farmon, 2023). Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan [6].

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda mamlakatimizning turizm sohasidagi ulkan salohiyatidan samarali foydalanish va turizm sohasining milliy iqtisodiyotda maqomini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun O'zbekistonda milliy turizmni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatayotgan mamlakatimiz hududidagi tarixiy-me'moriy obidalar nafaqat moddiy madaniyat yodgorligi sifatida, balki shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, taraqqiy etgan, buyuk mutafakkirlar etishib chiqqan ilmu-ma'rifat beshiklari sifatida ham xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Buning uchun yo'naltirilgan va keng qamrovli investitsion siyosat turistik industriyani yaratish va moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik ob'yektlaridan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi // 2017 yil. 3 oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Ostonov O'. YA. O'zbekiston hududida turizm infrastrukturasi salohiyati. // O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari, mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2019 yil, 96 bet.
5. Xashimov SH.J. Buyuk Ipak yo'li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat. Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Samarqand-SHanxay. 2019 yil, 191 bet.
6. Nizomitdinovich, J. A. (2024). MEMORY IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION. Gospodarka i Innowacje., 47, 483-486.
7. Asror, Y. (2023). Comparative Analysis of Linguocultural Units in English and Uzbek Mass Media Texts. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(3), 124-127.